

**MAHSULDORLIGI VA SO'YIM KO'RSATKICHLARI**

*Ilmiy rahbar*

**Amonov Rasul Chorshambi o‘g‘li,**

**Bakalavr Jańabaev Timur Baxadir Uhı**

**Bakalavr Yusupov Sardarbek Karjaubay Uhı**

**Bakalavr Oralbaeva Shaxnoza Koshkinbay Qızı**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali*

**Annotatsiya.** *Bu moqolada qora ko'l zotli qo'chqorchalarining go'sht-yog' mahsuldorligi va so'yim ko'rsatkichlari o'r ganilgan.*

**Kalit so'zlar:** *O'sish va rivojlanishi, qorako'l zotli qo'chqorchalar, yog', nimta vazni, so'yim vazni, so'yim chiqimi.*

**Kirish.** Qo'ylarni go'sht yetishtirish maqsadida urchitishning jahon tajribalarining ko'rsatishicha, soha rentabelligi va raqobatbardoshligini oshirish uchun qo'ylarning go'sht – yog' mahsuldorlik imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish zarur. Sohada go'sht yo'nali shiga ixtisoslashganlikni ta'minlash maqsadida, turli mahsuldorlik yo'nali shlardagi qo'ylarda bir xil bo'l magan, yuqori darajada go'shtdorlik hususiyatlarini namoyon etuvchi qo'y zotlaridan foydalanish zarur.

O'rta Osiyoda urchitiluvchi dumbali va qorako'l zotli qo'ylari go'sht - yog' mahsuldorligi bilan ajralib turadi. Eng yuqori go'sht – yog' mahsuldorlik ko'rsatkichlari dumbali qo'y zotlariga xos hisoblanadi. Dumbali qo'y zotlarining qo'zilari tez yetiluvchanlik, samaradorlik va ozuqaning mahsulotga aylanishining kamxarjligi (ozuqaning yuqori darajada hazmlanishi), turli yosh davrlarida foydalanish mumkinligini go'shtdorlikni shakllanishining yuqori darjasи va boshqa hususiyatlari bilan ajralib turadi. Qorako'l zotli qo'chqorchalardan ham

hayotining dastlabki yillarida go'sht – yog' mahsuldorligidan unumli foydalanish soha rivoji uchun samarali tarmoqlardan biri hisoblanadi.

**Tatqiqot maqsadi.** Hayvonlarning o'sish va rivojlanishini boshqarishning ilmiy asoslarini, go'shtdorlikning shakllanish qonuniyatlarini ishlab chiqish va ular asosida qo'zi go'shti yetishtirishning samarali texnologiyalarini yaratish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega

Ko'plab tadqiqotlarda aniqlanishicha, qo'ylarning tug'ilganidan 18 oylikkacha bo'lган o'sish va rivojlanishni to'rt davrga ajratish mumkin: birinchi davr – tug'ilganidan onasidan ajratilguncha (4,5 oy) eng yuqori o'sish va rivojlanishi bilan xarakterlanadi; ikkinchi davr (5-6 oy) – o'sishning sekinlashuvi; uchinchi davr (7-13 oy) – o'sishning to'xtashi yoki pasayishi va yakunlovchi davr (14-18 oy)- o'sishning tiklanishi, go'shtdorlikning shakllanishi va dumbada to'planishi bilan tavsiflanadi.

Qo'zilar hayotining ilk davrida to'qima va ayrim organlarining tirik vazn o'sish birligiga to'yimli moddalarni minimal sarflash hisobiga yuqori o'sish va rivojlanish energiyasi kuzatiladi.

**Tatqiqot manbai va usullari.** Qorako'l zotli qo'chqorchalaridan go'sht ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi borasidagi tadqiqotlar Samarqand viloyati Nurobod tumanidagi "Jarquduq yaylovlari" fermer xo'jaligida olib borildi.

**Tatqiqot natiyjalari.** Taqiqotimizda shu aniq bo'ldiki, yangi tug'ilgan qo'zilar 13 kundan keyin o'z vaznini ikki barobarga, keyingi 17 kunda 4 barobarga va undan keyingi 28 kunda 7 martagacha oshiradi. O'rta hisobda onasidan ajratish davrida (4,5 oylikda) qo'chqorchalarning o'rtacha tirik vazni hisori zotida 40-45 kg, tojik zotida 38-42 kg, edilboy zotida 38-40 kg, jaydari zotida 32-34 kg, qorako'l zotida 25-30 kg ni tashkil etadi. Bu yoshda qo'ylarning zoti, so'yim oldi tirik vazni va semizlik darajasiga bog'liq holda ularning so'yim chiqimi 48-58 foizni tashkil etadi.

Olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha yaylov sharoitida saqlangan tajriba va nazorat qorako'l qo'chqorchalarini 60 kun bo'rdoqilangandan keyingi (8 oylik) davrida so'yim oldi vazni bir-biridan farq qiladi. Shunga ko'ra, tajriba

guruhidagi qo'chqorchalarning nazorat guruhidagi qo'chqorchalariga nisbatan 12,0 kg yoki 34,5 foizga ustunligi aniqlangan. Xuddi shunday o'xshashlik nimta vazni bo'yicha ham kuzatildi. Tajriba ko'chqorchalarning nimta vazni nazorat qo'zilarnikidan 6,0 kg yoki 48 foiz og'iroq bo'lishi qayd etildi. Xuddi shunday ichki yog'lar 0,5 kg ga yoki 83 foizga, dumba yog'i esa 0,8 yoki 50 foizga farqlanishlar kuzatildi. Tajriba qo'chqorchalarining dumba yog'i vazni 1,6 kg ni tashkil etdi.

Tatqiqotimiz davomida qo'chqorchalarini bo'rdoqilash jarayonida qo'shimcha oziqlantirish tirik vaznining ortishi bilan birga, so'yim sifatlarining yaxshilanishiga ham olib keldi (1-jadval).

### **1- jadval**

**Qo'chqorchalarning go'sht-yog' mahsuldorligi, (n=3 bosh)**

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi.	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
So'yim oldi tirik vazni	kg	46,7	34,7
Nimta vazni	kg	18,5	12,5
Tirik vazniga nisbatan	%	39,6	36,0
Ichki yog'	kg	1,1	0,6
Tirik vazniga nisbatan	%	2,3	1,7
Dumba yog'i	kg	1,6	0,8
Tirik vazniga nisbatan	%	3,4	2,3
So'yim vazni	kg	21,2	13,9
So'yim chiqimi	%	45,3	40,0

Tajriba va nazorat guruhidagi qo'chqorchalarning so'yim vazni o'z o'rnida 21,2 va 13,9 kg ni tashkil etdi. Nintaning yog' bilan so'yim chiqimi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich tajriba qo'chqorchalarda (45,3 foiz) kuzatilib, nazorat qo'chqorchalaridan 5,3 foizga ustunlik qildi.

Tajriba guruhidagi qo'chqorchalar go'shti va yog'ining so'yim vazni 21,2 kg bo'lib, nazorat guruhidagi qo'chqorchalarga qaraganda 7,3 kilogrammga yuqoriligi qayd etildi. Yuqori so'yim chiqimi tajriba guruhidagi

qo'chqorchalarida kuzatilib, 45,3 foizni tashkil etgani holda, nazorat qo'chqorchalaridan 5,3 foizga ustunlik qilgani aniqlandi. Yuqori so'yim oldi tirik vazn ko'rsatkichlari tajriba guruhidagi qo'chqorchalarida kuzatilgan bo'lib, 46,7 kg ni tashkil etib, nazorat qo'chqorchalarni 12,0 kg ga ortda qoldirgani aniqlandi.

### **Xulosa**

Shunday qilib, qo'chqorchalarning go'sht-yog' mahsuldorligini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, qo'zilar 60 kun bo'rdoqilab boqilgandan keyingi 8 oylik davrlarda turli so'yim oldi tayyorgarlik texnologiyalari qo'llanilgangda eng yaxshi go'sht-yog' mahsuldorligi tajriba guruhidagi qo'chqorchalarda kuzatildi.

Bu esa qo'chqorchalarni 8 oylik yoshiga qadar 60 kunlik bo'rdoqilash xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun go'sht yetishtirishda samarali usullardan biri ekanligini ko'rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Арапов П.В., Петров В.А. – К вопросу о наследовании окраски сур смушек каракульских овец. М. Внеш. Торг, издат., 1928, с. 7-13.
2. Асанов А. – Влияние факторов кормления на половую потенцию каракульских баранов-производителей в условиях жаркого климата пустынь юга Казахстана. Международная научно-практическая конф. Молод, ученых аграриев. Шымкент, 2002, с.54.
3. Ахметшиев А.С. – Селекция каракульских овец каракалпакского сураса, изд. Кайнар, 1989, с. 100-105.
- Бадалбаев Н.С. – Некоторые вопросы роста и развития каракульских ягнят
4. Бадалбаев Н.С. – Некоторые вопросы роста и развития каракульских ягнят ребристого смушкового типа. Тр. ВНИИК, 1963, и.13. Ташкент, с.199-204.